



O'G'IRLIK JINOYATI TUSHUNCHASI VA PROFILAKTIKASI

¹Ganiyev Farrux Toxirjonovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi,
Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasini,

²Ganiyeva Gulandon Ibragimovna

Namangan davlat universitetining Psixologiya
(faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 1-kurs magistranti.
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7808288>

ARTICLE INFO

Received: 29th March 2023

Accepted: 06th April 2023

Online: 07th April 2023

KEY WORDS

Talon-tarojchilik, o'g'irlik,
kissovirlilik, bosqinchilik, jinoyat,
residivist jinoyat, profilaktika.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'g'irlik haqida, uning kelib chiqish sabablari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-168-169-moddasi haqida, hamda o'g'irlikning turlari, uni aniqlash, o'g'irlik jinoyatining salbiy oqibatlari to'g'risida keng fikr yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga muvofiq mamlakatimiz iqtisodiyotining negizini turli shakldagi mulklar tashkil etib, Mulk mutloq dahlsiz hisoblanadi va davlat tomonidan qo'riqlanadi, unga nisbatan har qanday tajovuz qonunga zid deb topiladi.

Jabrlanuvchining yoki boshqalarning yo'qligida ba'zan, ular bor bo'lsada, ularga bildirmasdan o'ziga tegishli bo'lmagan mol-mulkini yashirincha talon-taroj qilish o'g'irlik hisoblanadi. Shuningdek, jabrlanuvchi yoki boshqalar mol-mulkining o'g'irlyotganini ko'rgan bo'lsada, aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o'ylagan bo'lsa, bunday qilmishni ham o'g'irlik deb tavsiflash lozimligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining "O'zgarlar mulkini o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" ga Qarorining 1-bandida belgilab o'tilgan.

O'zganing egaligida bo'lgan mulkni olib qo'yish o'g'irlikka xos.

Afsuski hozirgi kunda keng jamoatchilik orasida olib borilayotgan profilaktik targ'ibot-tashviqot ishlariga qaramasdan odamlar orasida ayniqsa, yoshlar o'rtasida o'g'irlik jinoyati uchray turibdi.

Bugungi kunda sud -tergov amaliyoti tizimida talon-tarojning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri bu-o'g'irlik bo'lib, buning asosiy sababalaridan biri, avvalo, tergov amaliyotida sodir etilgan o'g'irlikni ochish, foizlarining unchalik katta emasligi deb bilsak adashmagan bo'lsak kerak, chunki o'g'irlik yashirin ravishda sodir etiladi va bu esa, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ancha oshiradi, uning ochilishini qiyinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasida o'g'irlik tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga binoan, o'g'irlik o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishdir. Ushbu jinoyatning sub'yekti 14 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Bosqinchilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa - jinoyat javobgarlikka sabab bo'ladi.



Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mulkni yashirin talon-toroj qilish o'g'irlanayotgan mulkni o'zlashirish, boshqarish, eltib berish yoki saqlash bo'yicha muayyan vakolatlarga ega shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, bu qilmish Jinoyat kodeksi 167-moddasi (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish) bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. [1] Ushbu moddaning birinchi qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik faqatgina tashkilot, muassasa va korxonalaridan xodim tomonidan o'g'irlangan mulkning umumiy qiymati eng kam oylik ish haqining besh baravaridan yuqori bo'lganda kelib chiqadi. Aks holda shaxs Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 61-moddasiga muvofiq javobgarlikka tortiladi. [2]

Kissavurlik, ya'ni egnidagi buyum, tilla va tilla bo'lmagan boshqa turdagi zargarlik taqinchoqlari, kiyim, sumka yoki boshqa qo'l yukidagi ashyoni o'g'irlash respublikamizning jinoyat qonuniga yangi kiritilgan og'irlashtiruvchi holatdir. Kissavurlikning ijtimoiy xavfliligi shundaki, birinchidan, bugungi kunda ancha ko'p tarqalganligi bilan, ikkinchidan, aybdor bevosita jabrlanuvchining o'zida turgan mulkni tortib olishi, agar egasi o'z mulkiga suiqasd qilnayotganini payqab qolsa, unga nisbatan zo'rlik ishlatilishi xavfi sodir bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi. Masalaning bir jihati, o'g'rilik sodir etilayotgan vaqtda kiyim jabrlanuvchining qo'lida yoki egnida bo'lishi kerak. Agar aybdor garderob yoki ilgichda osig'liq turgan kiyim cho'ntagidan ashyoni qonunga xilof tarzda topib olsa, kissavurlik tarkibiga kirmaydi. Aksincha, agar sumka yoki qo'l yuki jabrlanuvchining qo'lida bo'lsa yoki jabrlanuvchining o'zida yoki uning yonida sodir etilgan bo'lsa (masalan, jomadon, sumkani jabrlanuvchi xordiq chiqarish, nimadir sotib olish va hokazo uchun yoniga qo'ygan bo'lsa), yohud bu ashyolar yana yo'lga tushganida uning o'zi bilan birga bo'ladigan bo'lsa, bu holda Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismi "a" bandi qo'llanadi. [3]

O'g'rilikni ochiq joyda emas, balki uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa xonalarga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etishning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori. Buni shunday asoslash mumkin. Birinchidan, ochiq joylarda sodir etilganda, talon-toroj qilinishi mumkin bo'lgan mulkning miqdori cheklangan bo'lib, jinoyatchi o'sha yerda borinigina oladi. Uy-joyga, omborxonaga va boshqa xonalarga kirib o'g'rilik qilganda esa, jinoyatchining imkoniyatlari kengayib ketadi. Ya'ni, uyda saqlanayotgan qimmatbaho narsalar, zeb-ziynat buyumlari, jamg'arilgan pullarga egalik qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, o'g'rilik ochiq joyda yuz bersa, jinoyatchining imkoniyatlari kamroq, jabrlanuvchining tajovuzdan qutulib qolish sharoiti kengroq bo'ladi. Ya'ni, jabrlanuvchi mulkni o'zida olib qolish uchun qarshilik ko'rsatishi, qochib qolishi, atrofdagilarning yordamiga tayanishi, himoya qilishni so'rab atrofdagi odamlarga murojaat qilishi, sodir etilgan jinoyat yuzasidan tezkor choralar ko'rish uchun ichki ishlar xodimlariga murojaat qilishi mumkin.

Uy-joy, omborxonaga yoki boshqa xonalarga o'g'ri oralaganda esa aksincha: jabrlanuvchi barcha imkoniyatlardan mahrum bo'lib, chorasiz qoladi. Qolaversa, mazkur holatda o'g'rilikdan bosqinchilik jinoyati ham "o'sib" chiqishi mumkin.

Bosqinchilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa - jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan qat'iy narx belgilash imkoniyati yo'qligi sababli talon-toroj qilingan narsalarning qiymatini aniqlashda bir qancha qiyinchiliklar



yuzaga keladi. Shuning uchun talon-toroj etilgan mol-mulkning qiymati shu qilmish sodir etilgan paytda mazkur mintaqadagi o'rtacha bozor narxlari bo'yicha belgilanadi.

Qiymatni belgilashda mol-mulk holati, ishlab chiqarilgan vaqti, yaroqliligi, yaroqlilik muddati, tovar ko'rinishi, shu narsalardan foydalanish imkoniyatlari darajasi va hokazolar e'tiborga olinadi.

Mazkur jinoyatlarni sodir etishdan oldin unga puxta tayyorgarlik ko'riladi. Jinoyatchilar oldindan jinoyat sodir etiladigan joyni (ombor, do'kon, xonadon) yoki hujum uyushtirilishi lozim bo'lgan shaxsni (inkassator, g'aznachi, sotuvchi, qorovul) belgilab olishadi, zarur bo'lganda oldindan qurollarni tayyorlashadi, transport vositalarini hozirlab qo'yadilar, bajariladigan vazifalarni o'zaro taqsimlab olishadi.

O'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari aksariyat hollarda uyushgan guruh tomonidan sodir etiladi. Ko'pincha shunday guruhlar juda turg'un bo'lib, doimiy ravishda qator jinoyatlarni sodir etishlari ham mumkin.

Jinoyatchilar jamg'arma va davlat banklariga, do'konlarga, inkassatorlarga hujum qilish uchun maxsus tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradilar, korxonalar va muassasalarning ish rejimlarini o'rganadilar. Inkassator va savdo xodimlarining yo'nalishlarini kuzatadilar. Yetarlicha ma'lumot to'plaganlaridan keyin hujum qilish vaqtini va joyini, guruh tarkibini aniqlaydilar, qurol va transport vositasini hozirlaydilar. Orqaga qaytish yo'llarini va talontaroj qilingan mulkni yashirish joylarini belgilab olishadi.

O'g'irlik jinoyat ishlari bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) o'g'irlik jinoyati haqiqatan ham sodir etilganligi;
- 2) o'g'irlik jinoyati sodir etilgan joy (korxonalar, muassasa, tashkilotlarning aniq nomi va joylashgan joyi, jabrlanuvchining manzili, vaqti va qo'llangan usuli);
- 3) o'g'irlangan mulk kimga tegishli ekanligi (korxonalar, muassasa, tashkilot yoki fuqarolar);
- 4) aniq nima o'g'irlanganligi, o'g'irlangan mulkning belgilari, uning soni va narxi;
- 5) o'g'irlik jinoyatini sodir etishda qanday tefcnika vositalaridan foydalanganligi;
- 6) o'g'irlik kimlar tomonidan sodir etilganligi, ishtirokchilar va ularning vazifalari;
- 7) o'g'irlangan mulk kimga byerilgan yoki sotilganligi;
- 8) keltirilgan zarar miqdori;
- 9) o'g'irlik jinoyatining sodir etilishiga olib kelgan sabab va holatlar;
- 10) keltirilgan moddiy zararni qoplash uchun qanday choratadbirlar ko'rish talab etiladi.

O'g'irlik jinoyati sodir etilgan joy va uning manzili jabrlanuvchi, mansabdor shaxslar, qorovul, guvoh, surishtiruv organlari vakillari bergan ma'lumotlarda aniq ko'rsatilgan bo'ladi. O'g'irlik jinoyatining sodir etilishi vaqti, usuli va qanday texnikaviy vositalardan foydalanganligi voqea joyini ko'zdan kechirishda aniqlanadi, shuningdek o'g'irlik jinoyatini tergovda aniqlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar dastlabki tergov harakatlarini o'tkazish davrida aniqlanadi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda o'g'irlik ham hodisa sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Korruptsiya yo'l qo'ymaslik, oilada tarbiyaning nomukammalligi, sud tizimining zaifligi, ta'lim tizimidagi kamchiliklar va boshqa salbiy ijtimoiy omillar o'g'irlikni ijtimoiy hodisa sifatida keltirib chiqarishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda o'g'irlik va talon-tarojlik hamda bosqinchilik jinoyatlari kun sayin yoshlar va voyaga yetmaganlar orasida keskin ko'payib



bormoqda. Bunday jinoyatlarni oldini olish uchun nafaqat huquq tartibot idoralari hodimlari tomonidan balki butun jamiyat birgalikda kurashsa jinoyatni oldini olishimiz mumkun ayniqsa, ijtimoiy institutlar (bog'cha, maktab, oliy ta'lim, tashkilotlar, va h.k.o) oila va ota-onalar bunga ma'suldiralar. Shuni alohida takidlash kerakki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarni jazolashdan afzaldir, ya'ni huquqbuzarliklarning sodir etilishi natijasida fuqarolar, davlat va jamiyat ham iqtisodiy, ham ma'naviy zarar ko'radi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz» deganlarida farzandlarimizni bolaligidan pokni nopokdan, halolni haromdan farqlashga o'rgatishni nazarda tutadi va yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning quyidagi fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlari lozimligini ta'kidlaydi: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq» deb ta'kidladilar.

Shunday ekan har qanday jinoyatchilikni oldini olishda va huquqbuzarlikka qarshi kurashishda, avvalo, har bir inson o'z faoliyatini isloh qilishi kerak. Islohotlar avvalo inson ongini o'zgartirishdir. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurash birinchi navbatda oiladagi muhit va ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Nima halolu nima harom ekanligini farzandlarimizga bobo va momolar, ota-ona va ustozlar o'giti bilan singdirilishi xechkimga sir emas.

References:

1. Kriminologiya. – M., 2006. – s-203-204.
2. Ismailov I., Ziyodullayev M. va b.q. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish: o'quv-amaliy qo'llanma. –Toshkent: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2011. –B.158-165
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 167-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 3 dekabrda O'RQ-586-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son)
4. 61-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 3 dekabrda O'RQ-586-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son)
5. 169-modda birinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 3 dekabrda O'RQ-586-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19G/586/4106-son)
6. Kriminalistika darslik G.A.Abdumajidov II-JILD TDYUI nashriyoti Toshkent-2008 271 bet
7. Muxamedov O'X. Harakatlar strategiyasi asosida ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlar: birinchi bosqich yakunlari va istiqboldagi vazifalar G'G' O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2017.
8. <https://psj.ru/od-arhiv/spetsialnaya-podgotovka/46195-psikhologiya-vorovstva.html>



9. <https://xviib.uz/uz/news/uirlik-zhinojati-va-uning-salbij-oibatlari>
10. <https://yangiobod.jizzax.uz/yangiliklar/1741-irlik-zhinoyati-tushunchasi-va-zhazochoralari.html>